

# **BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

## **XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKLARDADA BOSHQARUV HISOBI MODELINI YARATISH OMILLARI**

***Mannapova Ra'no Abrorovna***

*TDIU "Budjet hisobi va g'aznachilik" kafedrasi, PhD., dotsent  
[r.mannapova@tsue.uz](mailto:r.mannapova@tsue.uz) ORCID id: 0000-0003-4577-8847*

Annotasiya. Ushbu maqolada bugungi global sharoitda mamlakatimizda buxgalteriya hisobining ilmiy maqomi va mazmuni rivojlanishda boshqaruv hisobini yuritishning yangi shakllari va relevant axborot hosil qilish vositalari va uni takomillashtirishning muhim taklif, tavsiyalari beriladi.

Kalit so'zleri buxgalteriya hisobi, boshqaruv hisobi, relevant, adaptiv, selektiv, depressiv holat, moliyaviy holat.

Yangi iqtisodiyotning turli jarayonlari (nomoddiy aktivlarning ommalashuvi, qo'shimcha qiymat tarikibining o'zgarishi, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar rivojlanishining beqaror xususiyati, beqarorlik, fond va tovar bozorlarining real sektorga katta ta'siri va b.), boshqaruv tizimlari e'tiborining hisob yuritishning qo'shilgan qiymatni shakllantirish hamda moliyaviy, inson, intellektual, ishlab chiqarish, tabiiy va ijtimoiy kapitalni o'zgartirish hisobidan pul oqimlarini hosil qilish mexanizmini ochib berishga yo'naltirilgan yangi ob'yekti sifatida iqtisodiy sub'yecktning biznes-modeliga qaratilganligi katta ta'sir ko'rsatmoqda. Shu munosabat bilan boshqaruv hisobi tizimining uning vositalarini shakllantiruvchi elementlarini va tegishli axborotlarni hosil qilishga nisbatan muayyan yondashuvlarni tavsiflash muhim vazifa hisoblanadi. Shuningdek, ularni muayyan iqtisodiy sub'yecktning individual o'ziga xosligi omillari sifatida belgilash mumkin, basharti ushbu omillarning ta'siri har bir muayyan iqtisodiy sub'yeckt uchun uning o'ziga xosligi va bozordagi vaziyatni imkon qadar hisobga oluvchi boshqaruv hisobi tahliliy harakatlari va usullarining adaptiv-selektiv to'plamini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

Xo'jalik yurituvchi sub'yecktlarda, xususan umumiy ovqatlanish korxonalarida boshqaruv hisobi vositalarini qo'llash amaliyotini o'rganish, shuningdek, iqtisodiy sub'yecktlarni boshqarish uchun tahliliy axborotni hosil qilish masalalari negizida iqtisodiy jarayonlarning amaliy jihatlarini ko'rib chiqish, iqtisodiy faoliyatning turli sohalaridagi korxonalarda boshqaruv hisobining tizimli mohiyatini hosil qiluvchi uning elementlarining xilma-xilligi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish imkonini berdi.

Boshqaruv qarorlarining samaradorligi ko'p jihatdan buxgalter-tahlilchi tomonidan iqtisodiy sub'yeckt faoliyatining individual xususiyatlari qay darajada hisobga olinganligi bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan hisob-tahliliy harakatlarni o'tkazishga nisbatan yagona yondashuvlarning qo'llanilishi har doim ham o'rinci bo'lavermaydi va ko'pincha noto'g'ri boshqaruv qarorlarining qabul qilinishiga olib keladi. Individual yondashuv iqtisodiy sub'yeckt faoliyatining o'ziga xosligini belgilab beruvchi omillarni imkon qadar to'liq hisobga olishdan iborat.

## **BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

Avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, boshqaruv hisobi metodologiyasi ko'p jihatdan korxona hayotiy siklining bosqichiga bog'liq bo'lib, rivojlanishning muayyan bosqichida kompaniya strategiyasini amalga oshirish vositalarining tabaqlashtirilgan majmuasidan foydalanishni nazarda tutadi.

Ba'zi tadqiqotlarda xarajatlarni hayotiy siklining bosqichlari bo'yicha tasniflashga katta e'tibor qaratildi. Boshqaruv hisobi metodologiyasini shakllantirish nuqtai nazaridan hayotiy sikl kontseptsiyasining mazmun-mohiyatini ochib berish maqsadida boshqaruv hisobi usullarini institutsional-evolyutsion yondashuv doirasida qo'llashning asosiy xususiyatlari ko'rib chiqiladi va tavsiflanadi. Bu esa ishlab chiqariladigan mahsulot hayotiy siklining turli bosqichlariga nisbatan, shuningdek iqtisodiy sub'ektning o'z hayotiy siklining turli bosqichlarida hisob yuritish va tahliliy ishlarning o'ziga xosligini aniqlash imkonini berdi.

Shunday qilib, mamlakat iqtisodiyotidagi turg'unlik jarayonlari alohida iqtisodiy sub'ektlar faoliyatining pasayishiga olib kelishi tayin. Mikrodarajadagi siklik o'zgarishlar makroiqtisodiy tahlili va monitoringining uyg'unlashtirilishi iqtisodiyotdagagi inqiroz holatining firmanın moliyaviy holatiga salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida oldini olish mexanizmini ishlab chiqish imkonini beradi. Alohida biznes birliklarining bankrotligi ko'pincha boshqaruvning qoniqarsiz sifati bilan emas, balki firma rivojlanish sur'atlarining makrodarajadagi iqtisodiy tizimning rivojlanish sur'atlariga mos kelmasligi bilan bog'liq.

O'z navbatida, tizimning makrodarajadagi iqtisodiy o'sish bosqichida menejerlar aholining iste'molning o'sishi, kredit stavkalarining arzonlashuvi, investitsiyaviy faollikning oshishi, texnologiyalar va asbob-uskunalar ommabopligrining oshishiga moyilligidan imkon qadar foydalanishlari kerak.

Iqtisodiy sub'ektning strategik maqsadi har qanday tashqi sharoitda yetarli miqdordagi qo'shilgan qiymatni hosil qilish imkonini beradigan biznes modelini ishlab chiqishdan iborat. Shu munosabat bilan biz tomonimizdan iqtisodiy sub'ekt va umuman davlat (iqtisodiyot sektori) hayotiy sikli bosqichlarining turli kombinatsiyalaridagi hisob-tahliliy tizimning xususiyatlarini yaratish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelindi.

Tadqiqotimizda biz, asosan, iqtisodiy sub'ektning faoliyati uchun salbiy tendentsiyalarni aniqlash va keyinchalik bartaraf etish maqsadida depressiv holat bosqichidagi tashqi muhitni tashxislash zarurligiga tayanamiz. Mamlakatimiz amaliyotda esa shunday yondashuv eng keng ommalashdiki, unga ko'ra inqirozga qarshi choralarни amalga oshirish uchun moliyaviy ahvolning yomonlashuvi tashxisi qo'yiladi. Inqiroz jarayonlari nafaqat iqtisodiy sub'ektning moliyasiga, balki uning faoliyatining boshqa sohalariga ham daxl qiladi. Bundan tashqari, moliyaviy ahvolning yomonlashuvi – bu har doim inqiroz holatining sababi emas, balki firmanın ichida ham, uning tashqarisida ham sodir bo'ladigan muayyan jarayonlarning natijasidir.

Umuman olganda, shuni ta'kidlash lozimki, buxgalteriya hisobi muayyan ijtimoiy-madaniy muhitda rivojlanadi, uning vositalarining o'ziga xosligi esa ko'p jihatdan u yoki bu jamiyatning madaniy va ijtimoiy nomalari va urf-odatlari bilan belgilanadi, bu hol hisob yuritish metodologiyasi milliy xususiyatlarining mavjudligini

# **BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

belgilab beradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mannapova R.A. Issues of management accounting in the field of services. Indo – Asian Journal of Multidisciplinary Research (IAJMR). ISSN: 2454-1370. Volume – 8; Issue - 1; Year – 2022; Page: 2491 – 2496. SJIF: 8.179. // [jpsscientificpublications.com](http://jpsscientificpublications.com)
2. Mannapova R.A. Xizmatlar sohasida boshqaruv hisobini tashkil etish masalalari. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 1/2022, (08.00.00 №10). -55-60 b. <http://iqtisodiyot.tsue.uz>
3. Ergasheva Sh.T., Mannapova R.A. Moliyaviy xisobotning xalkaro standartlarining rivojlanish boskichlari. Iqtisodiyot va ta'lif jurnali. – Toshkent, 2020. №4. -136-142 b.
4. Mannapova R.A. Umumiy ovqatlanish korxonalarida boshqaruv hisobini takomillashtirish masalalari. Monografiya. –T.: TDIU, 2024. -121 b.
5. Klichev, B. (2024, февраль 23). Inson kapitalini rivojlantirishda ishchilar harakati tahlili. Ilm-fan taraqqiyotida mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirish, Farg'ona, O'zbekiston. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10901976>
6. Чориев И.Х. (2023). Молиявий ҳисоботлардаги хатоликларни аниқлашда таҳлилий амаллардан фойдаланишнинг услубий жиҳатлари. *Scientific Journal of "International Finance & Accounting*, Issue 1, February 2023..
7. Қличев, Б. (2021, май 21). Маҳсулот (иш, хизматлар) га баҳо шакллантириш масалалари. Бухгалтерия ҳисоби ва аудиторлик фаолиятини халқаро стандартлар асосида ташкил этишнинг долзарб масалалари. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10647005>
8. Сагдиллаева, З. А., & Файзиев, У. Ш. (2023). АНАЛИЗ И ОЦЕНКА ФИНАНСОВОГО ПОЛОЖЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ. In *Бухгалтерский учет, анализ и аудит: история, современность и перспективы развития* (pp. 201-207).
9. Қличев, Б. (2021, май 21). Ўзбекистонда ишбилиармонлик фаоллиги таҳлилини ташкил этиш. Бухгалтерия ҳисоби ва аудиторлик фаолиятини халқаро стандартлар асосида ташкил этишнинг долзарб масалалари. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10646960>
10. Қличев, Б. (2021, май 5). Ишбилиармонлик фаоллиги индекси таҳлили. *Biznes-tahlilni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10647021>
11. Чориев И.Х. (2023). Молиявий инвестициялар ҳисобини такомиллашириш. *Scientific Journal of "International Finance & Accounting*, Issue 2, April 2023.

## **BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

12. Қличев, Б. (2022, сентябрь 16). Операцион фаолият таҳлилида харидор танлови асосида маҳсулотга баҳо шакллантириш масалалари. Инновацион ёндашув асосида молиявий ҳисботнинг халқаро стандартларини жорий этиш. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10647059>
13. Сагдиллаева, З., Чориев, И., Максмудов, А., & Юлдашева, Ю. (2007). Экономический анализ.
14. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2024). Ишчилар қўнимсизлиги таҳлили. *World Scientific Research Journal*, 23(2), 287–294. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3042>
15. Pardayevich, K. B. (2022). ANALYSIS OF PRODUCT PRICING BASED ON PRODUCT PARAMETERS AND CUSTOMER CHOICE. *Journal of new century innovations*, 6(1), 67-79
16. У.А. Нурманов. (2024). ЖОРИЙ АКТИВЛАРНИ ҚЎЛЛАШ ЖАРАЁНИДА БОШҚАРИШ ФУНКЦИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *World Scientific Research Journal*, 26(3), 140–147. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3257>